

## KPI SHAXSIY BAHOLASHNING ZAMONAVIY TIZIMI

*Abdumo'minov Muzaffar Erkin o'g'li  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Inson Resurslarini boshqarish fakulteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada “insonning iqtisodiy kamoloti” tushunchasiga tavsif berilgan. “insonning iqtisodiy komillikka erishganlik darajasi multiplikatori” ning hisob-kitobini beshta bosqichlarda amalga oshirish mexanizmi tavsiya etilgan. Insonning iqtisodiy komillikka erishganlik darajasini KPI vositasidan foydalanilgan holda baholashning “muhim mahorat indikatorlari” ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy holat, mehnat qobiliyati, tadbirkorlik qobiliyati, iqtisodiy mahorat, iqtisodiy mahoratli inson, muhim mahorat indikatorlari (KPI)

### KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida komil inson tushunchasi jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va intellektual tarkibiy qismlari bilan bir qatorda yana “iqtisodiy mahorat” komponenti [2] hisobiga kengayadi. Gap shundaki, bugun odam sog‘lom, odobli va aqli bo‘lishi yetarli emas. U o‘zi va mehnatga yaroqli bo‘lmagan oila a’zolarining ehtiyojlarini qondirish va uy ro‘zg‘ori sarf xarajatlarini qoplash uchun yetarli bo‘lgan pullarni ishlab topish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi darkor. Shuning uchun, iqtisodiy jihatdan insonga baho berishda uning iqtisodiy mahoratini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Komil insonning iqtisodiy mahoratini tavsiflovchi ikkita kobiliyatni ajratish maqsadga muvofiq:

1. *Insonning mehnat qobiliyati* ishchi kuchidan amalda foydalanish jarayonida yuzaga kelib aniq va abstrakt hamda jismoniy va aqliy mehnat turlaridan iborat. Kishi mehnat natijasida ish haqi olib tirikchilik qiladi.

2. *Insonning tadbirkorlik qobiliyati* - bu har bir kishining faol va mustaqil tadbirkorlik ishida o‘zining ishbilarmonlik fazilatlarini amalga oshirish shakli bo‘lib, ishlab chiqarish omillarning ulanishidan samarali foydalanish, izchil boshqaruv qarorlarini qabul qilish, texnologik va tashkiliy-boshqaruv yangiliklarini o‘zlashtirish, tavakkalga intilish hamda foya keltirayotgan ishni ta’minlash bilan bog‘liq insonning iqtisodiy qobiliyatidir [3].

Biznes tizimidagi mehnat va tadbirkorlik faoliyati jarayonida insonning iqtisodiy komillikka erishganlik darajasi quyidagi to‘rtta bosqichda yuzaga keladi: kapital sifatidagi inson qobiliyatini shakllantirish; ishchi kuchi sifatidagi mehnatga layoqatli insonni tarbiyalash; tadbirkorlik qobiliyati rivojlangan tadbirkor insonni

vujudga keltirish; kompaniya menejeri maqomidagi ishbilarmon inson darajasiga erishish.

Insonning iqtisodiy komillikka erishganlik darajasini, mehnat va tadbirkorlik qobiliyatlarining rivojlanganligi hamda iqtisodiyotda namoyon etishini baholash, bu qibiliyatlarini miqdor jihatdan aniqlash imkonini yaratadigan muhim mahorat multiplikatorlari (KPI) ni ishlab chiqish dolzARB vazifa bo‘lib hisoblanadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Insonning iqtisodiy mahoratini tavsiflovchi fazilatlarini aniqlashda Hall-Tonna Modeliga muvofiq ajratilgan instrumental qobiliyatlar (instrumental skills), shaxslalaro ko‘nikmalar (interpersonal skills), tasavvur qilish ko‘nikmalari (imaginative skills) va tizimli ko‘nikmalar (systemic skills) [4] muhim ahamiyat kasb etadi.


Shuningdek, insonning iqtisodiy mahoratini aniqlashda *psixologik yondashuv* e’tiborga loyiqlirki, unga ko‘ra tadbirkorlik faoliyatiga moyillik va psixologik tayyorlikni belgilovchi shaxsiy fazilatlar uchta quyidagi guruhga ajratiladi [5]:

- 1.“Asab tizimi va tafakkurning xususiyatlarini tavsiflovchi fazilatlar” guruhi.
- 2.“Motivatsion sohaning xususiyatlari” guruhi.
3. “Liderlik fenomeni” guruhi.

Yevropa komissiyasi doirasida tadbirkorlik sohasida kompetentlikning tuzilishi masalasi bo‘yicha (*EntreComp - Entrepreneurship Competence Framework*) olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Yevropa fuqarolari va tashkilotlarining tadbirkorlik salohiyatini oshirishga qaratilgan vosita sifatida 3 ta kompetentlik sohasi (“g‘oyalar va imkoniyatlar”, “resurslar”, “harakatlar”) va 15 ta tayanch kompetensiyalari tavsiya etiladi [6], ular insonning iqtisodiy mahoratini tavsiflashda muhim rol o‘ynaydi.

KPI vositasidan foydalangan holda insonning iqtisodiy mahoratini baholash mexanizmini ilmiy asoslashda tadbirkorlik qobiliyatining qattiq (hard skills ), yumshoq (soft skills ) va raqamli (digital Skills) ko‘nikmalariga ajratilgan holda ishlab chiqilgan muhim mahorat indikatorlari (KPI) yondashuvi [8] tayanch asos sifatida xizmat qiladi.

*Insonning iqtisodiy komillikka erishganlik darajasining etalon aniqlovchisini shakllantirish.* Insonning iqtisodiy komillikka erishganlik darajasining etalon darajasini aniqlovchisi sifatida biz “*iqtisodiy mahorat*” (*economic excellence*) iborasini tavsiya etamiz. Bunda, biz “*iqtisodiy mahorat*” deganda inson tomonidan mehnat va tadbirkorlik faoliyatini mohirlik bilan amalga oshirishga imkon beradigan iqtisodiy ko‘nikmalar majmui deb, tushunamiz.



1-rasm. Insonning iqtisodiy komillikka erishganlik darjasini baholash bosqichlari

“Iqtisodiy rol”, - A.P.Vyatkinning fikriga ko‘ra, - iqtisodiy xulq-atvorning o‘lchov birligi hisoblanib uni “turli iqtisodiy tuzilmalarda o‘zining iste’molchilik va xo‘jalik talab-ehtiyojlarini qondirish uchun individ bajarishga majbur bo‘lgan funksiyalar, ko‘rsatma va yo‘l-yo‘riqlar hamda fe’l-atvor reaksiyasining majmuasi” nazarda tutiladi [9, 75 ]. Rus psixologgi A.D. Karnyshhev maxsus iqtisodiy qobiliyatlarni iqtisodiy rollar bilan bog‘laydi. U insonning oltita quyidagi iqtisodiy rollarini ajratadi [9,77; 10]:

1. *Iste’molchi* (yashash uchun jamiyatda yaratilgan ne’matlarning so‘ngi iste’molchisi).
2. *Xaridor* (tovar va xizmatlarni iste’mol qilish va foydalanish maqsadida sotib oluvchisi).
3. *Ishlab chiqaruvchi* (o‘ziga va boshqalarga zarur bo‘lgan ne’matlarni ishlabchiqaruvchisi).
4. *Tadbirkor* (tovar ishlab chiqarish va xizmatlarni ko‘rsatish uchun o‘z mablag‘larini sarf qiladigan va tadbirkorlik qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaradigan shaxs).
5. *Sotuvchi* (o‘zi yaratgan va boshqalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning sotuvchisi).
6. *To‘lovchi* (davlat va kompetentli idoralar tomonidan belgilangan soliq, boj, kommunal va boshqa to‘lovlarning to‘lovchisi).

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalaraga keldik:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida komil insonning an’anaviy uch o‘lchamli sifatlari bilan bir qatorda uning iqtisodiy jihatini tavsiflovchi to‘rtinchi o‘lchov mezoni sifatida “*iqtisodiy mahorati*”ni inobatga olish va baholashni tavsiya etamiz.

2. “Insonning iqtisodiy mahorati” deganda inson tomonidan mehnat va tadbirkorlik faoliyatini mohirlik bilan amalga oshirishga imkon beradigan iqtisodiy ko‘nikmalar majmui deb, tushuniladi.

3.“Insonning iqtisodiy mahorati multiplikatori” ning hisob-kitobi iqtisodiy mahoratning etalon aniqlovchisini shakllantirish; muhim mahorat indikatorlari (KPI) ni ishlab chiqish; baholash shkalasini belgilash; qiyoslash usulida multiplikatorni hisoblash va kishining iqtisodiy mohirlik maqomini tanlash; diagnostik baholash natijasida iqtisodiy mahoratini uzluksiz oshirish to‘g‘risida ekspert tavsiyalariniberish kabi bosqichlarda amalga oshiriladi.

4. Inson iqtisodiy mahoratining asosiy mezonlarini lotin harflari orqali va quyi mezonlarini sonlar orqali KPI tizimida ifodalash yo‘li bilan odamlarning mehnat va tadbirkorlik qobiliyatini baholash imkonini beradigan “*muhim mahorat indikatorlari*” (KPI) ishlab chiqiladi.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 2016. – B. 153.
2. Navruz-Zoda B.N. To‘rt o‘lchovli inson qiyofasi. Psixologiya ilmiy jurnal, 4-son, 2011-yil. – B. 8-12.
3. Navruz-Zoda B.N. Iqtisodiy qobiliyatlarning o‘lchov mezonlari. Psixologiya ilmiy jurnal, 3-son, 2014- yil. – B. 1-6
4. Hall, B. P. (2014). Qadriyatlarning o‘zgarishi: shaxsiy va tashkiliy o‘zgarishlar bo‘yicha qo’llanma. Kaliforniya: Twin Lights nashriyoti.288 r.
5. Fotekova T. A., Mitruxina S. V., Vlasova E. N. va boshqalar tadbirkorlik faoliyati uchun kasbiy moyilliklarni o‘rganish. Psixologiya jurnali. Seriya: Bilish No 11 noyabr 2020 yil. - B. 107-113.
6. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH O‘RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.
7. Рашидов Диловар Нажмиддинович, & Холбоев Йигитали Авганович (2022). КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРДА ИЖТИМОЙӢ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ ШАХСЛАР УЧУН ИШ ЎРИНЛАРИНИ ЙЎНАЛИШЛАР КЕСИМИДА ЗАХИРАЛАШНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1 (1), 73-78. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-73-78